

MIRATIVLIK KATEGORIYASINING LINGVISTIK TADQIQI

Sattorova Durdona Shuhrat qizi

Xalqaro Innavatsion Universiteti Lingvistika(ingliz tili) 1- kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola dunyo tillarida mirativ ma'nolar (kutilmaganlik, hayratlanish) diapazonini tadqiq qiladi. Asosiy tushuncha DeLancey (1997, 2001) tomonidan "so'zlovchi uchun yangi yoki kutilmagan bo'lgan, hayratlanish tuslari bilan birga keladigan ma'lumotni yetkazish" deb ta'riflangan. Mirativ ma'nolar diapazoni bir qancha til birliklari, jumladan, fe'l affiksi, murakkab kesim yoki olmosh orqali ifodalanishi mumkin. Asosiy vazifasi axborot manbasini ifodalash bo'lgan evidentiallar (daliliy belgilar) ham mirativ kengaytmalarga ega bo'lishi mumkin, ayniqsa birinchi shaxs subyekti kontekstida. Maqolada mirativ kategoriyaning lingvistik diffuziyaga moyilligi ham ta'kidlanadi (ya'ni, tillararo tarqalishi mumkinligi).

Kalit so'zlar. Mirativ ma'nolar, Kutilmaganlik, Hayratlanish, Evidensiallar, Subyekt va obyekt

Abstract: This article investigates the range of mirative meanings (unexpectedness, surprise) in the world's languages. The basic concept is defined by DeLancey (1997, 2001) as "the expression of information that is new or unexpected for the speaker and is accompanied by shades of surprise." Mirative meanings can be expressed through a number of linguistic devices, including verbal affixes, complex predicates, or pronouns. Evidentials, whose primary function is to indicate the source of information, may also develop mirative extensions, especially in contexts with a first-person subject. The article also emphasizes the tendency of the mirative category toward linguistic diffusion (that is, its potential for cross-linguistic spread).

Keywords: Mirative meanings, Unexpectedness, Surprise, Evidentials, Subject and object

Kirish

Mirativlik haqida olib borilgan dunyo olimlarning quyidagi tadqiqodlarida shuni ko'rsatdiki, amerikalik lingvist T.Peterson o'zining "Mirativity as Surprise: Evidentiality, Information, and Deixis" asarida tadqiqod olib borish mobaynida mirativlikning tilda kontekstual bog'liqligi haqida ya'ni tilda mirativlik va grammatik bog'liqlikni hada tillar aro madaniyat bog'liqligini o'rgangan va shuningdek, til voqea va hodisani qay tarzda yetqaza olishini tadqiq etgan. Shuningdek, o'zining lingvistika sohasiga katta hissasini qo'shgan olimlar Alexandra Y. Aikhenvald ham o'zining "The essence of mirativity" asarida dunyo tillaridagi mirativ ma'nolar asosini gapiruvchining (va shuningdek, tinglovchining yoki hikoyaning bosh qahramonining) to'satdan

kashfiyot, hayrat va tayyor bo'lmagan ongini o'z ichiga oladi. Mirativ belgilari qarama-qarshilik kutilmaganligi va yangi ma'lumotning ohanglarini ham ifodalashi mumkin. Mirativ ma'nolarni fe'l qo'shimchasi, murakkab yoki sifat-dosh orqali ifodalanishi mumkin. Asosiy vazifasi ma'lumot manbasini ifodalash bo'lgan evidentiallar, ayniqsa 1-shaxs sub'ekt kontekstida mirativ kengayishlarga ega bo'lishi mumkin. Mirativ kategoriyasi lingvistik tarqalishga moyil ko'rinadi deb tadqiq qiladi hamda shuningdek S.de Lancey ham o'zining "Mirativity :The grammatical marking of unexpected information" asarida muallif evidensiallikning grammatik ifodasi yaqinda tipologik jihatdan keng o'rganila boshlagani va shu tadqiqotlar jarayonida "mirativ/mirativlik" deb ataladigan, gapda keltirilgan axborotning kutilmagan yoki hayratlanarli ekanini ko'rsatuvchi alohida grammatik kategoriya ajralib chiqqanini aytadi, evidensiallik avval faqat "g'ayrioddiy, ekzotik" hodisa deb qaralgan bo'lsa, hozir ko'plab tillarda keng tarqalgan grammatik parametr ekani tan olinganini; bu kengroq tadqiqotlar davomida ayrim olimlar ilgari faqat evidensiallikning kichik turi deb hisoblagan.

Muhokama va natijalar

Mirativlik holati lingvistika sohasida nafaqat adabiyot va san'atda ichki va tashqi holatni o'quvchiga va eshituvchiga qay tarzda ko'rsata bilish demakdir. Tilda mirativlik gaplarda qay tarzda qo'llanilishiga qarab belgilanadi, masalan gap mazmuni va kontekst bir biriga mutlaqo uzviy bog'liq bo'lishi kerak. Odatda bu kategoriyada muayyan holat va voqeani insonlar qabul qilishi kerak. Mirativlik muntazam ifodalar orqali, his-tuyg'uni ifodalovchi vositalar: -ku, -da, -a, -ya, "voy", "nahotki", hamda undov so'zlar, shuningdek qaysidir tajriba yoki bilishni ko'rsatadigan so'zlar, masalan, eshitdimki..., ko'rdimki..., o'ylaymanki... kabi so'zlar. Ushbu ifodalar gapda mirativlikni kuchaytiradi hamda urg'u berishda yordam beradi. Misol tariqasida rus adabiyotidan: Bu kichgina knyagina juda ham dilrabo juvon ekan-ku! (Lev Tolstoy, Urush va tinchlik romani) Bu gap o'ylamagan va to'satdan kutilmagan voqeylikni va taajubni bildiradi; Voy, g'alatisiz-a, graf! Nimasiga kulasiz? (Lev Tolstoy, Urush va tinchlik romani 1869; 55-bet) Bu gapda esa kutilmagan hayronlik belgisi bor. Mirativlik haqida olib borilgan tadqiqodlar shuni ko'rsatdiki, amerikalik lingvist T. Peterson o'zining tadqiqodlari mobaynida mirativlikning tilda kontekstual bog'liqligi haqida ya'ni tilda mirativlik va grammatik bog'liqlikni hada tillar aro madaniyat bog'liqligini o'rgangan va shuningdek, til voqea va hodisani qay tarzda yetqaza olishini tadqiq etgan. Shuningdek, o'zining lingvistika sohasiga katta hissasini qo'shgan olimlar A. Inghvald hamda S. de Lancey tilda mirativlikni grammatik kontekstsualligini, ya'ni mirativlik orqali gap mazmuni o'zgarishi haqida va turli tillarda mirativlikni madaniyat va vaqt bilan bog'laydilar. Mirativlik— bu gapiruvchiga (yoki eshituvchiga) yangilik, kutilmaganlik, hayrat uyg'otadigan ma'lumotni grammatik jihatdan ajratib ko'rsatadigan kategoriya. Buni ayrim tillar maxsus fe'l shakllari (masalan, alban, turk, bolgar tillaridagi admirativ fe'llar), boshqalari esa

partikla, intonatsiya yoki undovlar bilan ifodalagan. Oddiy qilib aytganda, bu kategoriya “haqiqatan ham shunday bo‘lib chiqdi-ku”, “voy, ma’lum bo‘ldiki...” degan ma’nolarni grammatik shakl bilan ko‘rsatishga xizmat qiladi. Alban tilida “admirativ” deb ataladigan maxsus fe‘l shakllari bor; ular ko‘pincha gapiruvchining hayratini yoki kutilmagan xabarni bildiradi, ba’zida istehzo, shubha yoki eshitganini qayta aytish ma’nosini ham bera oladi. Bu admirativ shakllar Bolqon tillari orasida o‘ziga xos bo‘lib, boshqa tillarga aynan o‘girilmaydi; neytral “xabar berish” ma’nosi inglizchadagi “apparently” so‘zi bilan taxminan ifodalanishi mumkinligi aytiladi. DeLancey (1997) “admirativ” atamasini umumtilshunoslikdagi “mirativity” tushunchasi sifatida taklif qiladi va buni Washo tilidagi ta’rifdan olgan aytiladi. Shuningdek, turk, Hare, Sunwar, Lhasa tibet, koreys kabi tillarda ham kimgadir yoki o‘ziga yangi bo‘lgan ma’lumotni grammatik yo‘l bilan, ya’ni mirativlik orqali ko‘rsatish borligi aytilgan. Ko‘p tillarda hayrat yoki yangi ma’lumot oddiy undovlar bilan (“Voy!”, “Oho, qarang!” kabi) ifodalanishi, intonatsiya ham mirativ ma’no berishga xizmat qilgan. Misol uchun o‘zbek adabiyotida ham mirativlikka misollar uchraydi: -Voy ,bu nimasi!Qo‘ying o‘zim supuraman! (Cho‘lpon,Kecha va kunduz romani) Bu gapda hayronlik,kutilmagan hayrat bor.Yoki -Obbo !Ja,olasan-da, senam.Xotin kishi erga tekkanidan keyin tug’adi-da.Sendan so‘rab o‘tirarmidi? ’’ (O‘tkir Hoshimov,Ikki eshik orasi romani)Bu gapda kutilmagan hayrat va bir holat ta’kidlanmoqda

Scott DeLancey mirativlikni tilshunoslikda alohida grammatik kategoriya sifatida taklif qilgan bo‘lib, u nutqchining kutganidan tashqari yangi ma’lumotni ifodalaydi.

Tyler Peterson esa evidentiallarning (dalillar bildiruvchilar) mirativ va metaforik ishlatilishlarini o‘rganib, ularning kontekstga bog‘liq ravishda "tayyor bo‘lmagan ong" (unprepared mind) ma’nosini berishini ko‘rsatadi . U DeLancey (1997, 2001) ishlariga tayanib, mirativlikni evidentiallikdan farqlab, Gitksan va Hare tillaridagi evidential markerlar misollarida nutqchining kutilmagan yangilikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri idrok etishini tahlil qiladi. Peterson DeLancey mirativlik ta’rifini qo‘llab-quvvatlab, lekin uni evidentiallarning ko‘p ma’noiligida cheklaydi, shuning uchun mirativlik grammatikada mustaqil, ammo kontekstga bog‘liq kategoriya.

Tilshunoslikda hayratni ifodalovchi birliklar tabiiy kategoriya (mirativlik)ni tashkil etadi degan kuchli sezgi mavjud bo‘lishiga qaramay, mavjud adabiyotlarda ushbu tushunchaning ta’rifi va qo‘llanishi masalasida doimiy ravishda muayyan noaniqlik kuzatiladi. Ushbu noaniqlikni bartaraf etish uchun men kognitiv fanlarda SURPRISE (hayrat) tushunchasiga asoslangan mirativlikning semantik ta’rifini taklif qilaman: mirativlik — bu SURPRISE tajribasi natijasida yuzaga keladigan ruhiy holatlarni tavsiflovchi munosabatlar majmuasidir. Ushbu munosabatlar albatta yangilik yoki kutilgan natijaga ziddlik (counterexpectation) o‘lchovini o‘z ichiga oladi: ikkinchisi sababiy jihatdan SURPRISEni yuzaga keltiradi, birinchisi esa ikkinchisining zarur sharti

hisoblanadi. Ikkinchidan, avvalgi tadqiqotlarda mirativ ma'no yoki propozitsional darajada, yoki nutq akti darajasida mazmunga ega ekanligi ko'rsatilgan. Tasavvur qiling, ertalab uyg'ondingiz ayni fasl bahor, aprel oyi havo esa issiq. Siz qor yog'adi deb o'ylamagansiz, lekin derazani ochsangiz qor hamma yoq. Bunday vaziyatda siz nima deyishingiz mumkin? Aniqrog'i, o'zingiz his qilgan "hayrat" unsurini ifodalash uchun qanday lingvistik vositalardan foydalanasiz? (1)-misolda turli tillardagi imkoniyatlar ko'rsatilgan. Ingliz tilida bunday holatda undov ohangi bilan aytilgan darak gap qo'llaniladi. Aikhenvaldning (2012) mirativlik tipologiyasiga nisbatan ikki xil munosabat mavjud. Bir qarash bu tipologiyani mazkur ma'no sohasining qisqa va mutlaqo yetarli ta'rifi, deb baholaydi; ikkinchi qarash esa uni haddan tashqari mavhum va noaniq, deb hisoblaydi. Bunday qarama-qarshi baholashlar semantik tahlilga bo'lgan turli metodologik yondashuvlar natijasida yuzaga keladi. Agar til ma'nosini tahlil qilishda asosiy mezon uning kommunikatsiyadagi funksiyasini oddiygina tasvirlash bo'lsa, Aikhenvald tipologiyasi, asosan, yetarli bo'lib ko'rinadi. Ammo agar semantik tahlil uchun asosiy mezon muayyan birlikning kompozitsion ma'no hissasini aniqlash bo'lsa — ya'ni, asosiy ma'no birliklari va amallaridan iborat qandaydir nazariy metatil doirasida, mazkur birlik ishtirok etgan istalgan gapning to'liq ma'nosi uning tarkibiy qismlaridan qanday hosil bo'lishini tushuntira olishi talab etilsa — u holda shunchaki kommunikativ funksiyalar bilan cheklangan tavsif, albatta, yetarli bo'la olmaydi.

Xulosa

Lisoniy tadqiqotlar natijasida mirativlik o'zbek tilshunosligida modallik va evidensiallik bilan semantik kesishuvga ega bo'lgan, biroq funksional jihatdan mustaqil kognitiv-pragmatik kategoriya ekanligi isbotlandi. O'tkazilgan tahlillar quyidagi yakuniy xulosalarga asos bo'ladi: Mirativlik so'zlovchi ongining ma'lum bir axborotga tayyor emasligini (unpreparedness of mind) grammatik markazlashtiruvchi vositadir. U shunchaki fakti emas, balki kutilmagan voqelikka bo'lgan subyektiv munosabatni ifodalaydi. Umuman olganda, mirativlik tilning kognitiv imkoniyatlarini kengaytirib, inson tafakkuridagi "kutilmagan yangilik" va "bilish jarayoni" o'rtasidagi dinamik aloqani lisoniy shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Delancey S. The semantics and pragmatics of mirativity: a constructional account. — Mouton de Gruyter: 1997. — P 33-52.
2. Lazard G. Mirativity, Evidentiality, Mediativity and other. Linguistic typology. — Mouton de Gruyter: 1999
3. Peterson T. Mirativity in Morphology. — Actrefore.com. 2020. — 113 p

4. Maisak, Timur & Sergei Tatevosov. 2007. Beyond evidentiality and mirativity: Evidence from Tsakhur. In Zlatka Guentchéva & Jon Landaburu (eds.), *L'énonciation médiatisée II. Letraitement épistémologique de l'information: Illustrations amérindiennes et caucasiennes*, 377–406. Leuven: Peeters.

5. Cho'lpon, Kecha va kunduz romani; 11-bet Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.

6. O'tkir Hoshimov, Ikki eshik orasi romani; 2001; 7-bet

7. Lev Tolstoy, Urush va tinchlik romani 1869; 13-bet

